



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 190-196 | ISSN: 2181-1865  
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### O'ZBEKISTONNING ISLOMIY BANK TIZIMINING JORIY HOLATI, UNING RIVOJLANISHIDAGI MUVAFFAQIYATLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN QIYINCHILIKLAR



**Pulatova Adolat Djaxangirshyevna**

International School of Finance Technology and Science Institute  
"Biznes Boshqaruv" kafedrasи o'qituvchisi  
**Email:** adolat6331762@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida islomiy bank tizimining hozirgi holati batafsil o'rganilgan. Unda tizimning rivojlanishidagi asosiy muvaffaqiyatlar, sohada erishilgan natijalar va zamonaviy ehtiyojlarga javob beruvchi islohotlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, islomiy bank xizmatlarini joriy etishda duch kelinayotgan qiyinchiliklar, jumladan, qonunchilikdagi muammolar, aholi va tadbirkorlarning yetarli darajadagi xabardor emasligi hamda infratuzilmaning yetishmasligi tahlil qilinadi. Maqolada islomiy bank xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha xulosalar keltirilgan. Xususan, tizimni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribani joriy etish, qonunchilikni liberallashtirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Islomiy bank, islomiy moliyalashtirish, O'zbekiston bank tizimi, shariat qoidalari, Islom Taraqqiyot Banki, murabaha, mudaraba, ijara, huquqiy baza, moliyaviy innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik.

**Аннотация.** В данной статье проведён подробный анализ текущего состояния исламской банковской системы в Узбекистане. Рассмотрены ключевые успехи в развитии системы, включая проведённые реформы и инновации, направленные на удовлетворение современных потребностей. Также анализируются основные проблемы, с которыми сталкивается внедрение исламских банковских услуг: недостатки в законодательстве, низкий уровень осведомлённости населения и предпринимателей, а также нехватка инфраструктуры. В статье подчёркивается социально-экономическое значение исламских банковских услуг, их роль в экономике Узбекистана и перспективы дальнейшего развития. Особое внимание уделено необходимости внедрения международного опыта, либерализации законодательства и повышения финансовой грамотности населения. Также предложены рекомендации по устойчивому развитию сектора.

**Ключевые слова:** Исламский банк, исламское финансирование, банковская система Узбекистана, принципы шариата, Исламский банк развития, мурабаха, мудараба, иджара, правовая база, финансовые инновации, международное сотрудничество.

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the current state of the Islamic banking system in Uzbekistan. It highlights the key achievements in the system's development, including successful reforms and innovations aimed at meeting modern needs. Additionally, the challenges faced in implementing Islamic banking services are examined, such as issues in legal frameworks, insufficient awareness among the population and entrepreneurs, and gaps in infrastructure. The article discusses the socio-economic significance of Islamic banking services, their role in Uzbekistan's economy, and future development prospects. It emphasizes the importance of adopting international best practices, liberalizing legislation, and enhancing financial literacy among the population to improve the system further. Recommendations for fostering sustainable growth in the sector are also outlined.

**Keywords:** Islamic banking, Islamic finance, Uzbekistan's banking system, Sharia principles, Islamic Development Bank, murabaha, mudaraba, ijara, legal framework, financial innovations, international cooperation.

Kirish Hozirgi kunda global moliya tizimining ajralmas qismiga aylangan islomiy bank faoliyati dunyoning ko'plab mamlakatlarida barqaror rivojlanishda davom etmoqda. Islomiy moliyalashtirish o'zining shariat qoidalariga asoslangan printsiplari bilan an'anaviy bank xizmatlaridan tubdan farq qiladi. Ushbu moliya tizimi moliyaviy shaffoflik va adolatni ta'minlash tamoyillari asosida ko'plab davlatlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. O'zbekiston ham islomiy moliyalashtirish yo'nalishida katta ahamiyatga ega qadamlar tashlashni boshladi. Oxirgi yillarda mamlakatda islomiy bank xizmatlariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshib, bu sohada qator yirik investitsion loyihibar amalga oshirilmoqda.

Islomiy bank tizimi hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida barqaror va ishonchli moliyaviy model sifatida tan olinmoqda. Ushbu tizim shariat qonun-qoidalariga tayanib, foiz stavkalarini taqiqlash, adolatli risk taqsimoti va moliyaviy shaffoflik orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. O'zbekistonda bu tizim hali nisbatan yangi bo'lishiga qaramasdan, mamlakat uchun katta imkoniyatlarni va istiqbollarni ochib bermoqda.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda islomiy moliyalashtirish sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-martdag'i "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup>gi qarori qabul qilingan. Ushbu qaror asosida O'zbekiston bank sektorida islomiy moliyalashtirish infratuzilmasini rivojlantirish doirasida Xususiy Sektorni Rivojlantirish bo'yicha Islom Korporatsiyasining maslahat yordamini jalb qilish belgilangan. Bu esa mamlakatda islomiy bank tizimini takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Islomiy bank xizmatlari O'zbekistonda nisbatan yangi yo'nalish bo'lgani sababli, tizimning rivojlanishi davomida bir qator sezilarli muvaffaqiyatlar va dolzarb muammolar kuzatilmoqda. Xususan, ushbu tizimning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilishi doirasida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, moliyaviy

<sup>1</sup> <https://kun.uz/61682069>

texnologiyalarni joriy etish va huquqiy asoslarni takomillashtirish kabi muhim masalalar yuzaga chiqmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning islomiy bank tizimining bugungi holati, tizimning o'ziga xos yutuqlari va duch kelayotgan qiyinchiliklar har tomonlama o'rghaniladi. Shuningdek, islomiy moliyalashtirish sohasining istiqboldagi yo'nalishlari, innovatsion yechimlar va yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

O'zbekistonning islomiy bank tizimi bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar, asosan, uning rivojlanish jarayonini, erishilgan natijalarni va mavjud muammolarni o'rghanishga qaratilgan. Islomiy bank tizimi, uning shariatga asoslangan tamoyillari va iqtisodiyotdagi roli haqida ko'plab nazariy va amaliy ishlanmalar mavjud.

Islomiy moliyalashtirishning asosiy tamoyillari haqida ilmiy manbalarda batafsil tahlillar keltirilgan. Masalan, Mohammad Nejatullah Siddiqi va M. Umer Chapra kabi mutaxassislar islomiy moliyaviy tizimning poydevorini, shariat qoidalariiga muvofiq bank xizmatlarini va ularning iqtisodiy foydasini o'rghanishgan. Chapra o'zining "Islamic Economics: A Short History" kitobida islomiy moliyaviy tizimning tarixiy shakllanishiga urg'u bergen va uning davlatlar iqtisodiyotlariga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qilgan. Islomiy bank tizimining asoslari, shariat qoidalari, foizsiz moliya va risklarni adolatli taqsimlash tamoyillari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

O'zbekistonning islomiy bank tizimi sohasidagi dastlabki izlanishlar XX asrning oxirlaridan boshlab olib borilgan. Mamlakatda islomiy bank xizmatlarini tatbiq etish jarayonini tahlil qilgan ilmiy maqolalarda O'zbekistonda islomiy banklarning rivojlanish bosqichlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilgan qonuniy va normativ islohotlar o'rghanilgan. Masalan, Tursunov (2019) o'zining ilmiy tadqiqotlarida O'zbekistonning islomiy bank tizimini shakllantirishdagi muvaffaqiyatlarni va tizimning rivojlanishidagi qiyinchiliklarni yoritadi. U, shuningdek, Islom Taraqqiyot Banki (ITB) bilan olib borilgan hamkorlikni va mamlakat bank sektorida islomiy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishini tahlil qiladi.

Mavjud izlanishlar islomiy bank tizimining rivojlanishidagi ijobiy yutuqlar va mavjud muammolarni alohida tahlil qilgan. Islomiy bank tizimining O'zbekistondagi muvaffaqiyatlarini o'rghanish uchun Kapitalbank va Asia Alliance Bank kabi yirik moliya institutlarining tajribasini tahlil qilgan adabiyotlar bor. Shuningdek, Adiletov (2020) o'z maqolasida islomiy moliyaviy xizmatlarning O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shgan hissasi va xalqaro hamkorlikni rivojlanishish bo'yicha erishilgan yutuqlarni ko'rib chiqqan. Ammo tizimning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar haqida ham bir qator tadqiqotlar mavjud. Jumladan, moliyaviy bilimlarning yetarli darajada shakllanmagani va huquqiy bazaning rivojlanishidagi muammolar islomiy bank xizmatlaridan keng foydalanishni cheklab qo'yayotgani qayd etilgan.

O'zbekistonning islomiy bank tizimining istiqbollarini o'rganishda Sh. Xodjayeva (2021) va T. Karimov (2022) kabi ilmiy ishlar alohida e'tiborga molik. Ular mamlakatda islomiy bank tizimining kelgusidagi rivojlanish imkoniyatlari va muammolarini, shuningdek, moliyaviy innovatsiyalarni joriy qilish orqali tizimni yanada takomillashtirish yo'llarini o'rganishgan. Tadqiqotlar kelajakda islomiy bank tizimi uchun zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi.

Islomiy bank tizimi O'zbekistonda shakllanayotgan soha bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida keng imkoniyatlarga ega. Biroq, tizimni yanada takomillashtirish uchun hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Jumladan, moliyaviy savodxonlikni oshirish va huquqiy bazani rivojlantirish zarurati tizimning samarali faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning islomiy moliyalashtirish tizimi 2000-yillarning o'rtalaridan boshlab rivojlanish bosqichiga kirdi. Dastlab, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda texnik yordam dasturlari amalga oshirilib, bu esa tizimning poydevorini mustahkamlashga xizmat qildi. Hozirda bir nechta tijorat banklari va moliyaviy institutlar islomiy moliyalashtirish xizmatlarini joriy qilgan. Masalan, "Kapitalbank", "Asia Alliance Bank" kabi yirik moliya muassasalari mijozlarga murabaha, ijara, mudaraba kabi islomiy moliyaviy xizmatlarni taqdim etmoqda. 2021-yilda Islom Taraqqiyot Banki (ITB) bilan hamkorlik yanada kengaytirilgan holda, O'zbekistonning islomiy moliya bozoriga kirishini ta'minlash bo'yicha bir qator dasturlar hayotga tatbiq etildi. Shu bilan birga, hukumat tomonidan islomiy bank tizimini tartibga soluvchi huquqiy va normativ asoslarni shakllantirish yo'lida muhim qadamlar qo'yilmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar mamlakatda islomiy moliyalashtirishni rivojlantirish va uning samarali faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqola O'zbekistonning islomiy bank tizimini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, tizimning bugungi holati, erishilgan yutuqlari va duch kelayotgan muammolarini tahlil qilish uchun kompleks tadqiqot metodikasidan foydalanilgan. Tadqiqot davomida rasmiy hujjatlar, normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Markaziy bank ma'lumotlari hamda Islom Taraqqiyot Banki kabi xalqaro tashkilotlarning materiallari o'rganilgan.

Ilmiy maqolalar, tahliliy materiallar va moliya institutlarining ochiq hisobotlari tahlil qilinib, ular asosida islomiy bank tizimining O'zbekistondagi o'ziga xos jihatlari aniqlangan. Islomiy moliyalashtirish tamoyillari, shariatga asoslangan moliyaviy xizmatlar (murabaha, mudaraba, ijara va boshqalar)ning tatbiq etilish jarayonlari tahlil qilingan. O'zbekiston bank sektorining statistik ma'lumotlari, jumladan, islomiy moliyalashtirish xizmatlarining ulushi, mijozlar soni va moliyaviy operatsiyalar hajmi bo'yicha ko'rsatkichlar ko'rib chiqilgan.

O'zbekistonning islomiy bank tizimi boshqa davlatlar, jumladan, Malayziya, Saudiya Arabistoni va Turkiya kabi muvaffaqiyatli mamlakatlarning tajribasi bilan solishtirilib, o'xshashliklar va farqlar aniqlangan.

Islomiy moliya va bank sohasi bo'yicha mutaxassislar va olimlar bilan intervyular o'tkazilib, ularning amaliy tajribalari va fikr-mulohazalari asosida qo'shimcha ma'lumotlar to'plangan. Islomiy bank tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar (huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy bilimlarning pastligi, xalqaro standartlarga moslashishdagi qiyinchiliklar) aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Islomiy moliyalashtirish infratuzilmasining kengayishi, xalqaro hamkorlikning rivojlanishi va innovatsion texnologiyalarning tatbiq etilishi kabi sohaning keljakdagi yo'nalishlari tahlil qilingan.

Tadqiqotning bosh maqsadi islomiy bank tizimining O'zbekistondagi amaliyotini to'liq va tizimli o'rganish, tizimning bugungi holatini baholash va uning kelgusida rivojlanishi uchun aniq strategik takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekistonning islomiy bank tizimi, rivojlanayotgan bir soha sifatida hali to'liq shakllanmagan, biroq yuqori potentsialga ega deb baholanishi mumkin. Mamlakatda islomiy bank xizmatlarini joriy etish jarayonida bir qator ijobjiy o'zgarishlar va mavjud muammolar yuzaga kelgan.

Tizimning kengayishi: O'zbekistondagi bir nechta tijorat banklari, xususan, "Kapitalbank" va "Asia Alliance Bank" kabi moliya institutlari islomiy moliyalashtirish xizmatlarini taklif etish bilan birga, murabaha, mudaraba va ijara kabi asosiy islomiy moliyaviy mahsulotlarni mijozlarga yetkazishmoqda. Bu banklar islomiy bank xizmatlarini kengaytirish orqali joriy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shamoqda.

Xalqaro hamkorlik: Islom Taraqqiyot Banki (ITB) bilan amalga oshirilgan hamkorlikda yirik texnik yordam dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 2021-yilda ITBning ko'magida O'zbekistonda islomiy moliyalashtirish bozoriga kirish va bu sohada muhim dasturlarni amalga oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Huquqiy infratuzilmaning rivoji: Davlat tomonidan islomiy bank faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani yaratish, moliyaviy xizmatlarni yanada shaffof va barqaror rivojlantirishga imkon beradigan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu ham tizimning keljakda yanada rivojlanishini ta'minlaydi.

Mijozlar qiziqlishi: O'zbekiston aholisining islomiy moliyalashtirish xizmatlariga bo'lgan qiziqlishi ortib bormoqda. Bu esa sektorga yangi investitsiyalar va imkoniyatlarni jalb qilishga yordam bermoqda.

### Duch kelayotgan qiyinchiliklar:

- Moliyaviy savodxonlikning pastligi: O'zbekiston aholisi orasida islomiy bank xizmatlari haqida tushunchaning yetarlicha tarqalgan emasligi sababli, mijozlar bazasini kengaytirish qiyin bo'lmoqda. Buning natijasida, islomiy bank xizmatlarining joriy etilishi xususida ko'proq axborot va tushuntirish ishlari talab etiladi.

- Texnologik infratuzilma yetishmasligi: Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonlari hozirgi kunda sekin kechmoqda, bu esa xizmatlarning samaradorligini va mijozlarga qulaylikni ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.
- Raqobat muhiti: An'anaviy bank xizmatlari bilan raqobatlashish murakkabligi sababli, islomiy moliyaviy xizmatlarning bozor ulushi hamon nisbatan past darajada qolmoqda. Bu masala rivojlanayotgan sektor uchun asosiy to'siqlardan biridir.
- Huquqiy cheklovlar: O'zbekistonning huquqiy bazasi, islomiy bank xizmatlarini to'liq qamrab olish uchun yetarlicha rivojlanmagan. Bu, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni yaratish va ularni mijozlarga taqdim etish uchun qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda islomiy bank tizimi uchun katta rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Xalqaro hamkorlikning kengayishi, moliyaviy infratuzilmaning yaxshilanishi va davlat tomonidan qo'llanilayotgan qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar sektorning rivojlanishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, tizimning to'liq salohiyatini amalga oshirish uchun aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va raqobatbardosh bozor muhitini yaratish zarur.

Islomiy bank tizimi O'zbekiston iqtisodiyotiga qo'shimcha barqarorlik olib kirish, davlat moliyaviy tizimining diversifikatsiyasiga hissa qo'shish va xalqaro moliyaviy maydondagi o'rmini mustahkamlashda yordam berishi kutilmoqda. Tizimning muvaffaqiyatli ishlashi uchun, strategik yondashuv, doimiy islohotlar va moliyaviy sohadagi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Bu o'zgarishlar nafaqat bank tizimining barqarorligini, balki butun iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

### Xulosa va takliflar

O'zbekistonning islomiy bank tizimi nisbatan yangi yo'naliшига qaramay, uning rivojlanishida muhim yutuqlarga erishilmoqda. Xususan, xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi, tijorat banklari tomonidan islomiy moliyaviy xizmatlarning joriy etilishi va huquqiy infratuzilmaning shakllanishi bu boradagi muhim qadamlar sanaladi. Biroq, tizimni yanada rivojlantirish uchun hali bir qator masalalarni hal qilish talab etiladi. Jumladan, moliyaviy bilimsizlik, raqobatbardosh kadrlarning yetishmasligi va xalqaro standartlarga mos keluvchi islomiy moliya tizimining to'liq uyg'unlashuvi kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu sohani yanada takomillashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– **Moliyaviy bilimsizlikni bartaraf etish:** Aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida islomiy moliyalashtirishning asoslari va afzalliklari haqida keng tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Maxsus seminarlar, treninglar va ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumot tarqatishni kuchaytirish lozim.

– **Huquqiy infratuzilmani rivojlantirish:** Islomiy bank xizmatlarini tartibga soluvchi qonunchilikni xalqaro andozalarga muvofiq rivojlantirish va yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etishni qo'llab-quvvatlash zarur.

– **Mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish:** O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida islomiy moliyalashtirish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini tatbiq etish, xalqaro tajribaga ega kadrlarni jalg qilish va o'qitish tizimini tashkil etish lozim.

– **Raqamli texnologiyalarni tatbiq etish:** Zamonaviy texnologiyalar asosida raqamli islomiy moliya xizmatlarini yaratish va iste'molchilarga qulay xizmat ko'rsatishni ta'minlash katta ahamiyatga ega.

– **Xalqaro sheriklikni kengaytirish:** Islom Taraqqiyot Banki va boshqa xalqaro moliya institutlari bilan aloqalarni mustahkamlash orqali tajriba almashish va yangi moliyaviy resurslarni jalg qilish lozim.

– **Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash:** Islomiy moliyaviy mahsulotlar asosida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish dasturlarini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shish mumkin.

Yuqorida chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda islomiy bank tizimining barqaror rivojlanishiga zamin yaratib, milliy iqtisodiyotga yangi imkoniyatlar ochilishida muhim rol o'ynaydi.

### Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, [www.president.uz](http://www.president.uz)

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi 596-sonli qaroriga doir hujjatlar kitobi.

3. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliya-lash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni loyihasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr

5. Alshater, M. M., Hassan, M. K., Khan, A., & Saba, I. (2020). Influential and intellectual structure of Islamic finance: 14(2), 339–365.

6. Rammal, Hussain Gulzar; Zurbruegg, Ralf (23 August 2007). "Awareness of Islamic banking products among Muslims: The case of Australia". *Journal of Financial Services Marketing* 12 (1): 65–74. [doi:10.1057/palgrave.fsm.4760060](https://doi.org/10.1057/palgrave.fsm.4760060).

7. Kun.uz saytidagi maqola - <https://kun.uz/61682069>

8. Alshater, M. M., Hassan, M. K., Khan, A., & Saba, I. (2020). Influential and intellectual structure of Islamic finance: 339–365.

9. U O'roqov, Sh A Rayimqulova. O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini shakllantirish masalalari. Science and Education, 2022

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

